

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Tashkent davlat texnika universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 8 ayi


60210400 - Dizayn: sanoat dizayni
bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Markuz Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standartlari, Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standartlari, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Milliy va xalqaro malaka sertifikatlarini qabul qilish, tasdiq standartlar va kadr talab buyurtmaschilari ta'kidlashga muvofiq ishlab chiqarilgan "O'zbekiston Respublikasi yoniy ishlab chiqarish hisobidan".

O'zbekiston Respublikasi Milliy va xalqaro malaka sertifikatlarini qabul qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

Toshkent -2023



ISHLAB CHIQLILGAN: MUNDARIJA

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil « 7 »
08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60210400 - Dizayn: sanoat dizayni bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1	Kvalifikatsiya	8
2.3.2.	60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:	8
2.3.3.	60210400 - Dizayn: sanoat dizayni bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi: Bibliografik ma'lumotlar.....	9 10
	Kelishuv varog'i.....	12

1. 60210400 - Dizayn: sanoat dizayni bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **60210400 - Dizayn: sanoat dizayni** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.

1.2.1. 60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

60210400 - Dizayn: sanoat dizayni – san'at sohasidagi yo'nalish bo'lib, u o'quv fanlari, vositalari, uslublari va pedagogik faoliyatning usullarini turli xil mahsulotlarga dizayn yaratish, yoritish asboblari, bolalar o'yinchoqlari, maishiy texnika, mebel sanoati, transport vositalari yangi texnologiyalarini yaratish, elektron asboblari va qurilmalarni loyihalash, tadbiq etish, soha istiqbolini belgilash, texnik servis xizmat ko'rsatish va ta'mirlash jarayonlarini tashkillashtirish, ishlab chiqarish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini pedagogik faoliyatda foydalanishni o'z ichiga oladi.

Zargarlik buyumlari mahsulotlari, maishiy buyumlar, misgarlik sohasi, murakkab zargarlik texnikalar, kichik ishlab chiqarish korxonasi va mahsulot ishlab chiqarish vositalarini seriyalash, zargarlik buyumlarini alohida ijodiy ko'rinishi va shuningdek ilmiy-tadqiqot va loyihalash-konstruktorlik institutlaridagi faoliyatni o'z ichiga oladi.

1.2.2. 60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

– ishlab chiqarilayotgan mahsulotning dizayn loyihasi;

– badiiy konstruktiviyalash va modellashtirish jarayonlari;

– sanoat va maishiy texnika vositalarining dizayn loyihasi va funktsional badiiy yechimi;

– badiiy izlanish va yangi innovatsion g'oyalarni ustida ishlash.

– zargarlikda ishlatiladigan qora va rangli metallarni o'rganish; zargarlikda ishlatiladigan toshlarni tuzilishi va xossalari; zargarlik buyumlarini dizayni loyihalash-konstrukstiyalash jarayonlari;

– milliy zargarlik buyumlari dizayn ishlanmasi; zargarlikdagi (stil) uslublarda ishlash va rivojlantirish;

– filigran texnikasida ishlash va rivojlantirish;

– yangi zargarlik namunasini yaratishda oddiy usul va zamonaviy texnikadan foydalanish;

– turli hil assortimentdagi toshlarning bir-biriga mosligi va rang jihatidan uyg'unligini hosil qilish; zargarlikda quyish texnologiyasini bilish

1.2.3. 60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- muhandislik - loyiha-konstruktorlik;
- ishlab chiqarish - texnologik;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ilmiy-tadqiqot;
- foydalanish-servis.

1.2.4. 60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Muhandislik-qidiruv va loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

– loyihaviy maket konstruktorlik qismlari va detallari loyihasini tizimli yondoshuv asosida elektrlashtirilgan ravishda ishlab chiqish;

– bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha dizayn, innovastion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;

– loyihaviy va konstrukstiyaviy ishlab chiqish;

– loyihaviy dizayn funkstiyalarini aniqlash bo'yicha sinovlarni o'tkazish qobiliyati;

– ishlab chiqarish amaliyotda qobiliyatlarini o'zlashtirish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

– ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

– xo'jalik yurituvchi subyektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;

– yangi innovastion g'oyaviy dizayn loyihalarini tadbiq qilish va ularni amalga oshirish;

– internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

– ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

– tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

– maishiy texnika, mebel sanoati, transport vositalari va funkstiyalarini yaratishda ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va tatbiq qilish;

– elektron sanoati asboblari va qurilmalarini texnologik jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish;

– zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan qurilish ishlab chiqarishi texnologik jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

– atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilish talablaridan kelib chiqib ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

– muhandislik va konstruktorlik yechimlarini amaliyotga tatbiq qilishni tashkil qilish va boshqarish;

– korxonada va tashkilotlarning brendini yaratish va dizaynini yangilash;

– ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishda sifatni boshqarish;

– ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

– fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;

– birlamchi ishlab chiqarish bo‘g‘inining ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

– bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirishda erishilgan natijalarini baholash;

– ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- dizayn eskiz va analoglar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

- g‘oyani shakllantirish, biror bir yaratilayotgan loyihaning to‘liq ma‘lumotlarga ega bo‘lish, yangi dizayn loyihasini yaratish va uni funkstiyalashtirish;

- loyihalar samaradorligini baholash;

Foydalanish-servis faoliyatida:

- sanoat asboblari va qurilmalari konstrukstiyalari, loyihaviy tizimlari va xom-ashyo materiallari, sozlash, sinash va foydalanishga topshirish qoidalari va texnologiyasini bilishi;

- kompyuter qurilmalari va jihozlari, uskunalari va vositalarni sinov tekshirishi usullarini egallagan bo‘lishi.

2. 60210400- Dizayn: sanoat dizayni ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta‘minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- loyihalarni baholash, analoglarni tahlil qilish, biror bir mahsulot va texnikaga konstruktorlik jihatidan badiiylashtirish va sayqallashtirish ;

- loyihalar, dizayn ishlanmalar va uning usti ish olib borish;

- g‘oyaviy yechim va estetik jihatdan qulayliklarga ega dizayn yaratish ;

- yangi dizayn loyihalarni tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- yaratilayotgan dizayn loyihasining ergonomik va konstruktorlik talablarni qo‘llash;

- loyihaviy jarayonlarini modellashtirish, dizayn loyihalarini baholash, yangi tashkilotlarni (faoliyat yo'nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun g'oyaviy dizayn ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.3. 60210400- Dizayn: sanoat dizayni bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar *majburiy va tanlov* fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

1. Majburiy fanlar (mantiqiy uzviyligi bo'yicha):

➤ Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo'lgan fan bo'yicha talabning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.

➤ Alohida fanlar – kasbiy kompetensiyalarni yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'lmagan fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari yetarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

2. Tanlov fanlari.

➤ Chuqur ixtisoslashuv tanlov fanlari – ixtisoslashuvdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan fanlar bo'yicha qo'shimcha bilim berishga va bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan fanlar jamlamasi. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 80 % dan kam bo'lmagan qismi taqsimlanishi mumkin.

➤ Shaxsiy qiziqishga qaratilgan fanlar – talabning tanlagan ta'lim yo'nalishidan qat'iy nazar, shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 20 % dan ko'p bo'lmagan qismi taqsimlanishi mumkin.

O'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

A. Majburiy fanlar

Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo'lgan fan bo'yicha talabning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.

Alohida fanlar – kasbiy kompetensiyalarni yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'lmagan fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari yetarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

B. Tanlov fanlar ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengaytirishga xizmat qiluvchi fanlar majmuasidan iborat bo'lib, har bir tanlov fanlar jamlamasiga uchtdan kam bo'lmagan o'rnini bosuvchi fanlar kiritilishi mumkin. O'quv rejadagi tanlov fanlari majmuasining umumiy soni 10 tagacha bo'lishi mumkin.

S. Malakaviy amaliyot.

Bakalavrlar tayyorlashda quyidagi malakaviy amaliyotlar o'tkaziladi:

2,3-bosqichlarda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonasi, tashkilot va muassasalarida) umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

4-bosqichda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonasi, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishini tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malakaviy amaliyotlarning boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

2.3.1. Kvalifikasiya: dizayner

2.3.2. 60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5010	167
Tanlov fanlari	1620	54
Malakaviy amaliyot	420	14
Yakuniy davlat attestastiyasi	150	5

2.3.3. 60210400 - Dizayn: sanoat dizayni bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	5010	167	
1.01	O'RT11204	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.02	DIN11104	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	XT11308	Xorijiy til 1,2	240	8	1,3
1.04	OM11208	Oliy matematika	240	8	1,2
1.05	O'EYT11204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.06	TTAT11204	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	120	4	2
1.07	MKG11204	Muhandislik va kompyuter grafikasi	120	4	2
1.08	SIM14704	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	120	4	7
1.09	FAL13504	Falsafa	120	4	5
1.10	EKA13604	Ekologiya	120	4	6
1.11	XFX14804	Hayot faoliyati havfsizligi	120	4	8
1.12	RKA11210	Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari	300	10	1,2
1.13	QVR11415	Qalamtasvir va rangtasvir	450	15	1,3,4
1.14	LAS11421	Loyixalash asoslari	630	21	1,2,3,4
1.15	ERGO12404	Ergonomika	120	4	4
1.16	BION12304	Bionika	120	4	3
1.17	STAR12725	San'at tarixi	750	25	3,4,5,6,7
1.18	HKA12408	Xajmli kompozitsiya asoslari	240	8	3,4
1.19	SQT13505	Sanoatda qalamtasvir	150	5	5
1.20	KD3D12513	Kompyuter dizayn va 3-D modellashtirish	390	13	3,4,5
1.21	KLOY14810	Kompyuter loyixalash	300	10	7,8
2.00		Tanlov fanlari	1620	54	
2.00		Tanlov fanlari (12 ta fan)	1620	54	5,6,7,8
		Jami	6630	221	
		Malakaviy amaliyot	420	14	4, 6, 8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	150	5	8
		Jami	570	19	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi, qonun, qoida, qaror, oliy ta'lim, o'quv jarayoni, loyiha, ishlab chiqarish korxonalari, analog, mahsulot, texnika, konstruktor, dizayn, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, baholash, sifat nazorat, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, profil, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi, ichki nazorat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari
ISHLAB CHIQILGAN:

**Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti**




Rektor [Signature] prof. S.M. Turabdjanov

2023 yil « 03 » 07

“SUN-HIGHTECH” MCHJ

Direktor [Signature] Sh. Axmedov

2023 yil « 03 » 07



M.O'.

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi**

Direktor [Signature] Sh. Yakubov

2023 yil « 03 » 07

M.O'.

**K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va
dizayn instituti**

Rektor [Signature] A.Sh. Mirzoximov

2023 yil « 06 » 07

M.O'.

Toshkent arxitektura qurilish universiteti



Akademik faoliyat prorektori v.b.

[Signature] E.B. Xoltursunov

2023 yil « 03 » 07

M.O'.

**Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat
instituti**



Rektor [Signature] D.A. Vaxabov

2023 yil « 06 » 07

M.O'.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rektor v.v.b. [Signature] E.O'. Shermanov



2023 yil « 03 » 07

M.O'.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
60210400- Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv
rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar
iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

.. 7 .. 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – “SUN-HIGHTECH” MCHJ direktori Sh.Axmedov, Toshkent arxitektura qurilish universiteti akademik faoliyat prorektori v.b. E.B.Xoltursunov, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori prof. S.M.Turabdjano**v** birgalikda ToshDTUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 iyundagi F-31-son farmoyishiga 2023/2024 o'quv yilida davlat oliy ta'lim muassasalariga bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha davlat buyurtmasi asosida o'qishga qabul qilish parametrlari, PQ-4359-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

“SUN-HIGHTECH” MCHJ
direktori

Sh.Axmedov

Toshkent arxitektura qurilish universiteti
akademik faoliyat prorektori v.b.

E.B. Xoltursunov

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti rektori, professor

S.M. Turabdjano**v**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida
ishlab chiqilgan 60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi
bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va
zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari
va o'quv rejasiga**

TAQRIZ

“Ta’lim to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta’lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg‘or jahon darajasiga muvofiqligini ta’minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog‘liq.

60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”, qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3775-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to’g’risida”gi 259-sonli buyrug‘i, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta’lim yo’nalishi o’quv rejasini kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o’zlashtirishi, amaliyotlarni o’tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko’nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta’minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon

ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga etkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama etuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

Toshkent arxitektura qurilish universiteti
akademik faoliyat prorektori v.b.



E.B. Xoltursunov

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida ishlab
chiqilgan 60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy
ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy
bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv
rejasiga**

TAQRIZ

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida 60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig'i va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasida xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan obyektlari misolida fan va texnikaning ilg'or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta'minlangan bo'lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste'molchilari bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60210400 - Dizayn: sanoat dizayni ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasida oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga etkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama etuk mutaxassislar tayyorlashga oid

masalalarni o‘z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

“SUN-HIGHTECH” MCHJ
direktori



Sh.Axmedov